



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MAVJUD IQTIDOR TURLARINI ANIQLASH

Sirojiddinova Shodiya Xasanovna

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17128585>

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan iqtidorli bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkillashtirish va takomillashtirish masalalari yoritilgan.

Аннотация: В статье освещаются вопросы организации и совершенствования учебно-воспитательных процессов с одаренными детьми, воспитывающимися в дошкольных образовательных организациях.

Annotation: The article highlights the issues of organizing and improving educational processes with gifted children raised in preschool educational organizations.

Kalit so'zlar: iqtidor, qobiliyat, iste'dod, qiziquvchanlik, yuqori imkoniyat, bilish jarayonlari, ta'lim, tarbiya, jadallashtirilgan ta'lim, maxsus dastur, shaxs xususiyatlari.

Ключевые слова: одаренность, способности, одаренность, любознательность, высокая емкость, познавательные процессы, образование, воспитание, ускоренное обучение, специальная программа, особенности личности.

Keywords: giftedness, abilities, giftedness, curiosity, high capacity, cognitive processes, education, upbringing, accelerated learning, special program, personality traits.

Iqtidor – bu insonning hayotga moslashish uchun genetik va eksperimental ravishda oldindan belgilangan qobiliyatlarining o'ziga xos o'lchovidir. Iqtidorlilik – bu insonning boshqa odamlarga nisbatan bir yoki bir nechta faoliyat turlarida yuqori natijalarga erishish qobiliyatini belgilaydigan psixikaning tizimli sifati. Iqtidorli bola – bu u yoki bu faoliyat turidagi yorqin, ravshan, ba'zan ajoyib yutuqlari bilan ajralib turadigan bola. Iqtidorning asosiy funktsiyalari – bu dunyoga, atrof-muhitga maksimal darajada moslashish, ijodiy yondashuvni talab qiladigan yangi, kutilmagan muammolar paydo bo'lganda, barcha holatlarda yechim topish. Shu nuqtai nazardan qaraganda, iqtidor bolalarning asosiy psixologik xususiyati, ularning haddan tashqari aqliy faolligi, ruhiy stressga beixtiyor, tinimsiz jalb etilishidir.

Iqtidor inson psixikasining butun umr davomida tizimli rivojlanuvchi sifati bo'lib, insonning boshqa odamlarga nisbatan bir yoki bir necha sohada yuqori natijalarga erishish imkoniga ega ekanligi bilan belgilanadi. Iqtidor, talant,





iste'dod, qobiliyat, layoqat kabi bir-biriga yaqin, bir-birini to'ldiruvchi tushunchalarga bir qator lug'atlarda quyidagicha ta'riflanadi: Iqtidor (arab, qodir bo'lmoq, qila olmoq) shaxsning ijodiy xususiyati va aqliy faoliyatini anglatadigan tushuncha.

- iqtidor bu-tabiat tomonidan in'om etilgan qobiliyatlar, qobiliyatlar tabiiy asoslarining o'ziga xosligi va ularning namoyon bo'lishi darajalari;
- iqtidor bu-faoliyatning muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta'minlaydigan qobiliyatlarning o'ziga xos uyg'unlashuvidir;
- iqtidor bu-insonning imkoniyatlari ko'lami, faoliyatlari darajasi va o'ziga xosligini belgilaydigan umumiy qobiliyatlar;
- iqtidor bu-aqliy potensial, ta'lim olish qobiliyati imkoniyatlarining bir butun individual xarakteristikasi, va bilish jarayoni;
- iqtidor bu iste'dodlilik, faoliyatda yuqori natijalarga erishish uchun ichki imkoniyat va sharoitlarning mavjudligi.

Insonning iqtidori uning intellekti bilan ham bog'liq hodisadir. Qobiliyat esa ayrim bolalar faoliyatida namoyon bo'ladi. Iqtidor hamda qobiliyat o'zaro bir-biridan farq qilsa-da, ular bir-birini taqozo etadigan tushunchalaridir. Shuning uchun ham insonda iqtidor va qobiliyat uyg'unligini ta'minlash uni ma'naviy barkamollik sari yetaklash imkonini beradi. Iqtidor va qobiliyatni shakllantirishda biofiziologik, pedagogik ijtimoiy, tabiiy omillar, sezgilar va ma'naviy-axloqiy tarbiya muhim o'rin egallaydi. Iqtidor, avvalombor, gneseologik vazifani bajaradi. Shuning uchun ham bolalar iqtidorlari yordamida moddiy borliq va voqelikni bilish, unga ijodiy yondoshishga erishadilar. Iste'dod nihoyatda zo'r qobiliyat, biror sohada yuksak darajadagi layoqatdir. U idrok, tasavvur, tafakkur, xotira, kuzatuvchanlikning benihoya o'sganligida, voqea-hodisalarning yangi qirralarini, ularning zamiridagi murakkab aloqadorlikni kashf etishda ko'rinadi.

Iqtidor bilish, o'quv, ijodiy, badiiy, harakatli faoliyat sohalarida namoyon bo'ladi. Iqtidorli bolaning o'quv faoliyatdagi yutuqlari uning erta yoshdan o'qishga bo'lgan intilishida namoyon bo'ladi. Ba'zida bolalar 3-4 yoshida, kattalarning yordamisiz mustaqil ravishda o'qiy boshlaydi. Bola kitoblarni tomosha qilishi, rasmlar asosida hikoya tuzishi, harflarni yozishi, kattalar o'qiyotganda uzoq vaqt sabr bilan tinglashi, o'z yoshiga mos bo'lmagan matematik amallarga qiziqishi, matematik belgi va ishoralarni tushunib eslab qolishi, ba'zida tabiatga, tabiiy fanlarga qiziqishini ham namoyon qilishi, turli predmetlarning kelib chiqishi va ularning vazifasi haqida savollar berishi mumkin. Badiiy faoliyat sohasida bola o'zini ertaroq namoyon etadi: erta rasm





chizishni boshlaydi, ko'p vaqtini, masalan plastilindan turli narsalarni yasashga ajratadi, bunda o'zining mohirligini namoyish etish orqali, ranglar, kompozitsiyalarni to'g'ri tanlay oladi. Shuningdek, musiqaga ham erta qiziqish paydo bo'ladi, musiqiy tovushlarni ajrata oladi. "Harakatlantiruvchi sohadagi iqtidor bolada turli harakatlarni bajarish, ya'ni yugurish, sakrash turli akrobatik mashqlarni bajarish, muvozanatni saqlay olishda namoyon bo'ladi. Bola turli yoki bitta sohada iqtidorli bo'lishiga qaramay, mana shu tabiat tomonidan berilgan qobiliyatni o'z vaqtida aniqlab, uning rivojlanishiga yordam berishimiz kerak".

Har bir bola iqtidorini yuzaga chiqarish faqat alohida shaxs uchun emas, balki jamiyat va uning taraqqiyoti uchun zarurligini anglatadi. Pedagoglarga qo'yiladigan asosiy talablardan biri iqtidorli bolalarni aniqlash, iqtidorni kerakli yo'nalishda rivojlantirish uchun ijodiy yondashish va uni yuzaga chiqarish uchun zarur shart- sharoitni yaratish, bolalar ruhiyatini tushuna olish va malakali yordam bera olishdir. Iqtidor bu inson psixikasining butun umr davomida tizimli rivojlanuvchi sifati bo'lib, insonning boshqa odamlarga nisbatan bir yoki bir necha sohada yuqori natijalarga erishish imkoniga ega ekanligi bilan belgilanadi. Iqtidorli bolalar, Shuningdek, ular uchun qiziqarli bo'lgan sohada natijaga erishishda qat'iyatlikka ega bo'lishi bilan ajralib turadi. Biroq, ularning ko'pchiligiga xos bo'lgan qiziqishning xilma-xilligi ba'zan bir vaqtning o'zida bir nechta ishni boshlashiga olib keladi.

Alohida iqtidor va qobiliyatga ega bo'lgan bolalar bilan ishlash jarayonida bir qator pedagogik va psixologik qiyinchiliklarning mavjudligi kuzatilmoqda. Bu bolalardagi iqtidor va qobiliyat turlarining rang-barangligi, tarbiyachining uni ro'yobga chiqarish imkoniyatining cheklanganligi, buning uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar, kasbiy mahoratining yetishmasligi bilan izohlanadi. Shuning uchun ham pedagogika oliy o'quv yurtlarida turli xil iqtidorga ega bo'lgan bolalarga ta'lim berish, ularga nisbatan individual va tabaqalashtirilgan yondashuv asosida faoliyat ko'rsatish tajribasiga ega bo'lgan pedagoglarni tayyorlash vazifasi qo'yilishi lozim. Bunda avvalo intellektual, ijodiy, badiiy, ijtimoiy-shaxsiy qobiliyatlarga ega bo'lgan yoshlarga ijodiy yondashish mahoratini egallash nazarda tutiladi. V.L.Panovning fikricha, alohida iqtidorga ega bo'lgan bolalar:

-iqtidor va qobiliyatining ko'rinishiga qarab qobiliyatlilar va o'ta qobiliyatlilarga;

-iqtidorining namoyon bo'lishiga qarab ochiq, yaqqol hamda yashirin iqtidor ko'rinishiga ega bo'lganlarga;





-ruhiy rivojlanishiga qarab iqtidori yoshiga nisbatan me'yorida rivojlanishga ega bo'lgan hamda yoshiga nisbatan ko'proq rivojlanganlarga,
-yosh xususiyatlarining namoyon bo'lishiga qarab barqaror hamda biror bir yoshga yetishiga qarab namoyon bo'ladiganlarga;
-shaxsiy, gender (ijtimoiy-jinsiy) hamda boshqa xususiyatlariga qarab har xil turdagi iqtidorli bolalarga bo'linadilar.

Bolalarda mavjud bo'lgan iqtidor turlarini aniqlash va ularni yanada rivojlantirish maqsadida bir qancha metodlardan foydalaniladi:

1. Anketa metodi:

Maktabgacha yoshdagi bolalarning iqtidorini aniqlashda anketa metodidan foydalanish mumkin. Anketalar bolalarning ijtimoiy, emotsional, kognitiv va boshqa rivojlanish aspektlarini baholashda yordam beradi, ayniqsa bolalar bilan bevosita muloqot o'rnatish qiyin bo'lsa. Lekin bu metodni to'g'ri va ehtiyotkorlik bilan qo'llash kerak.

2. Rivojlantiruvchi o'yinlar:

Bolalar uchun o'yin – bu nafaqat ko'ngilochar faoliyat, balki rivojlanishning asosiy usuli hamdir. O'yinlar orqali ular yangi bilim va ko'nikmalarni egallaydi, ijodkorlik va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

3. Denver rivojlanish testi (Denver Developmental Screening Test, DDST) — maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishini baholash va normadan chetga chiqishni aniqlash uchun ishlab chiqilgan test. Uni psixologlar, shifokorlar va pedagoglar 1-6 yosh oralig'idagi bolalarning rivojlanishini baholashda qo'llaydilar.

4. Maktabgacha yoshdagi bolalar (3-7 yosh) tabiatan ijodiy fikrlashga moyil bo'lib, ularning tasavvuri, noodatiy fikrlashi va yangi g'oyalar yaratish qobiliyati yuqori bo'ladi. Ellis Paul Torrance tomonidan ishlab chiqilgan ijodkorlik testi (TTCT) bu yoshdagi bolalarning ijodiy salohiyatini baholash va rivojlantirishga yordam beradi.

5. Ko'p qirralik intellekti nazariyasi (Howard Gardner)

Howard Gardner tomonidan ilgari surilgan Ko'p qirralik intellekti nazariyasi bolalarning turli sohalarda rivojlanishiga yo'l ochadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar har xil qobiliyatlarga ega bo'lishi mumkin, shuning uchun ta'lim jarayonida har bir bolaning o'ziga xos qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish muhimdir.

6. Reggio Emilia yondashuvi – bu maktabgacha ta'limda qo'llaniladigan innovatsion va bolaga yo'naltirilgan pedagogik tizimdir. U 1940-yillarda





Italiyadagi Reggio Emilia shahrida ishlab chiqilgan va hozirda dunyoning turli burchaklarida keng tarqalgan.

7. Montessori usuli:

Bolalarni o'qitish va tarbiyalashga qaratilgan pedagogik tizim bo'lib, 1900-yillarda italiyalik shifokor va pedagog Maria Montessori tomonidan ishlab chiqilgan. Montessori usuli bolalarga o'zini o'zi boshqarish, mustaqil o'rganish va ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirishga imkon yaratadi. Ushbu yondashuvda bolalar o'z rivojlanishiga mos ravishda o'qish, o'rganish va tajriba o'tashadi.

Yuqorida keltirilgan metodikalarni o'tkazishdan ko'zlangan asosiy maqsad maktabgacha yoshdagi bolalarda mavjud bo'lgan iqtidor turlarini o'z vaqtida aniqlash va ularni to'g'ri yo'naltirish hisoblanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, iqtidorli bolalarni aniqlash, ular bilan alohida ishlash, ularning har biriga individual sifatida qarash, o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish, munosabatlarni yaxshilash, ota-ona bola ,tarbiyachi munosabatlarini baland tutish va ijodiy ishlash juda zarurdir. Eng muhimi, tabiatning insoniyatga bergan ajoyib sovg'asini yanada rivojlantirish va boladagi iqtidorni iste'dodga aylantirish uchun astoydil harakat qilish lozim. Buning uchun albatta pedagoglar doimiy izlanishda bo'lishi va boladagi iqtidorni o'z vaqtida aniqlab to'g'ri yo'naltira olishi kerak..

References:

1. N.V. Petrovskiy va boshqalar Umumiy psixologiya. Toshkent, "O'qituvchi" - 1992 yil
2. E. Goziyev Psixologiya. T., O'qituvchi-1994 y.
3. N. Kayumova "Maktabgacha pedagogika" T.: "Tafakkur sarchashmalari"2013.
4. <http://www.edunet.uz>
5. <http://www.istedod.uz>

